



**Asosiy tarkib**



**Dastlabki ma'lumotlar**

2021- yilning yanvar-dekabr oylarida chakana savdo tovar aylanmasi **10 659,0** mlrd. so'mni tashkil etib, 2020- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan **11,0 %** ga oshdi. Shu jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi **1 389,0** mlrd. so'mni (**7,3 %** ga kamaydi), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi **9 270,0** mlrd. so'mni (**14,4 %** ga oshdi), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi **1 848,7** mlrd. so'mni (**32,6 %** ga oshdi) tashkil etdi.


**Tarkibiy qism, ulushlarda**



**O'sish (o'zgarish) sur'atlari, foizda**



**Uyushmagan savdo, mlrd. so'm**






**UMUMIY MA'LUMOT**

2021- yilning yanvar-dekabr oylarida chakana savdo tovar aylanmasi **10 659,0** mlrd. so'mni tashkil etib, 2020- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan **111,0** % ni tashkil etdi.

Chakana savdo tovar aylanmasida barcha shahar va tumanlarda o'sish sur'ati kuzatildi. Chakana savdo tovar aylanmasining tarkibiy qismlarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga **87,0** % va yirik korxonalar hissasiga **13,0** % to'g'ri keldi.




**ENG YUQORI ULUSH**

Chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori ulush Urganch shahrida **34,9** % ulush bilan **3 717,5** mlrd. so'mni tashkil etdi.

**ENG QUIYI ULUSH**

Chakana savdo tovar aylanmasida eng quyi ulush Tuproqqal'a tumanida **1,7** % ulush bilan **183,6** mlrd. so'mni tashkil etdi.

**YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY  
TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING CHAKANA  
SAVDO TOVAR AYLANMASIDAGI ULUSHI, foizda**



Chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori hajm kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlariga to'g'ri keldi. Mazkur hajm 2021- yil yanvar-dekabr oylari yakuniga ko'ra, **9 270,0** mlrd. so'mni tashkil etib, 2020- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan **14,4 %** ga o'sgan. Jami chakana savdo tovar aylanamasidagi ulushi esa **87,0 %** ni tashkil etdi.


Bu ko'rsatkich hududlar kesimida taqqoslanganda, Tuproqqal'a (99,7 %), Yangiariq (99,4 %), Bog'ot (99,2 %) va Shovot (98,3 %) tumanlarida yuqori bo'lgan.





2020- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan chakana savdo tovar aylanmasida barcha hududlarda o'sish sur'atlari kuzatildi.



**Chakana savdo aylanmasining o'sish sur'atlari, foizda**



	Jami, mln. so'm	2020- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar, mln. so'm	2020- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan, foizda	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, mln. so'm	2020- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan, foizda
<b>Xorazm viloyati</b>	<b>10 659 018,3</b>	<b>111,0</b>	<b>1 389 021,9</b>	<b>92,7</b>	<b>9 269 996,4</b>	<b>114,4</b>
<i>shaharlar:</i>						
Urganch	3 717 524,4	104,0	1 147 973,8	90,4	2 569 550,6	111,5
Xiva	410 640,9	116,2	22 535,2	88,7	388 105,7	118,3
<i>tumanlar:</i>						
Bog'ot	575 409,1	118,5	4 457,4	21,2	570 951,6	122,9
Gurlan	906 246,7	120,0	21 832,6	178,7	884 414,1	119,1
Qo'shko'pir	433 499,4	105,5	19 934,1	83,6	413 565,3	106,9
Urganch	1 046 738,2	110,3	62 434,0	199,8	984 304,2	107,3
Hazorasp	1 101 174,4	116,7	54 937,7	2,2 m.	1 046 236,8	113,9
Tuproqqal'a	183 602,1	111,2	487,5	100,2	183 114,5	111,3
Xonqa	638 689,9	116,7	23 319,5	45,2	615 370,4	124,1
Xiva	284 635,0	115,1	4 874,4	104,4	279 760,5	115,3
Shovot	640 169,9	117,4	11 038,8	49,9	629 131,0	120,2
Yangiariq	440 288,8	108,7	2 450,3	28,4	437 838,5	110,4
Yangibozor	280 399,6	126,7	12 746,6	4,8 m.	267 653,1	122,4



### Yirik korxonalar

Eng yuqori ulushga ega hududlar, foizda



### Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari

Eng yuqori ulushga ega hududlar, foizda




Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarning tovar aylanmasi hajmi, 2020- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan **7,3 %** ga kamaydi va **1 389,0** mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining **13,0 %** ulushiga to'g'ri keladi.




Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko'ra, **9 270,0** mlrd. so'mni tashkil etib, 2020- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan **14,4 %** ga o'sdi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi **87,0 %** ni tashkil etdi.



**CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK  
BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING  
HUDUDLAR KESIMIDA ULUSHI (foizda)**



Tahliliy natijalarga ko'ra, chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha Tuproqqal'a (99,7 %), Yangiariq (99,4 %) va Bog'ot (99,2 %) tumanlari yetakchilik qilmoqda. Chakana tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi 13,0% ni tashkil etib, eng katta ulush Urganch shahrida (30,9 %), Urganch tumanida (6,0 %) va Xiva shahrida (5,5 %) kuzatildi.





## XORAZM VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

2021- yil yanvar-dekabr oylari holatiga ko'ra, o'rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi **5 584,4** ming so'mni (2020- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan **9,3** % ga oshdi) tashkil qildi. Yuqori o'sish sur'ati Yangibozor (125,0 %), , Gurlan (118,5 %), Bog'ot (116,5 %), Shovot (115,7 %) tumanlarida qayd etildi.

Ushbu ko'rsatkichlar hududlar kesimida solishtirilganda, aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasida yuqori hajmlar Urganch shahri (25 497,4 ming so'm), Gurlan (6 013,6 ming so'm) va Hazorasp (5 567,1 ming so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.


## XORAZM VILOYATI BO'YICHA AHOLI JON BOSHIGA NISBATAN CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI




## XORAZM VILOYATI ULGURJI VA CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI 2021- yil yanvar-dekabr

	Hajm, ming so'm	2020- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan, foizda
Xorazm viloyati	<b>5 584,4</b>	<b>109,3</b>
<i>shaharlar:</i>		
Urganch	25 497,4	102,9
Xiva	4 354,6	114,3
<i>tumanlar:</i>		
Bog'ot	3 425,1	116,5
Gurlan	6 013,6	118,3
Qo'shko'pir	2 478,6	104,2
Urganch	5 146,2	108,2
Hazorasp	5 567,1	115,4
Tuproqqal'a	3 308,1	108,2
Xonqa	3 361,5	114,8
Xiva	1 915,4	113,1
Shovot	3 700,4	115,7
Yangiariq	3 731,3	107,2
Yangibozor	3 161,2	125,0


**Asosiy tarkib, foizda**




**O'sish (o'zgarish) sur'atlari, foizda**



**Savdo aylanmasi hajmi va ulushi**



**Eng yuqori ulushga ega hududlar**



2021- yilning yanvar-dekabr oylarida uyushmagan savdo tovar aylanmasi **1 848,7** mlrd. so'mni tashkil etib, 2020- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan **32,6 %** ga o'sdi. Shu jumladan, 12-bozor va 12-bozor (chorva) (oylik) kuzatuvlari ma'lumotlariga asosan dehqon bozorlarida savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning uy xo'jaliklarida yetishtirgan mahsulotlarini sotish hajmi **1 001,4** mlrd. so'mni (o'zgarish sur'ati 110,7 %), chorva mollari va parrandalar sotuvchi jismoniy shaxslarning savdo aylanmasi hajmi **847,3** mlrd. so'mni (o'zgarish sur'ati 172,9 %) tashkil etdi.



2021- yilning yanvar-dekabr oylarida dehqon va chorva (parranda) bozorlarida uy xo'jaligida yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari, parrandalar va chorva mollari savdosi bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuvini o'tkazildi. Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilgan savdo aylanmasi hajmi dehqon bozorlarida 1 001,4 mlrd. so'mni, chorva (parranda) bozorlarida 847,3 mlrd. so'mni tashkil etdi.



\* Xo'jalik yurituvchi subyektlar va yakka tartibdagi tadbirkorlar (YTT)ni qo'shmagan holatda

\* Jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari, chorva (parranda) mollari

	Jami, mlrd. so'm	2020- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan, foizda	Dehqon bozorlari, mlrd. so'm	2020- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan, foizda	Chorva (parranda) bozorlari, mlrd. so'm	2020- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan, foizda
<b>Xorazm viloyati</b>	<b>1848,7</b>	<b>132,6</b>	<b>1001,4</b>	<b>110,7</b>	<b>847,3</b>	<b>172,9</b>
<i>shaharlar:</i>						
<b>Urganch</b>	414,1	143,6	315,6	145,0	98,5	139,2
<b>Xiva</b>	48,9	166,6	48,1	164,1	0,7	-
<i>tumanlar:</i>						
<b>Bog'ot</b>	254,8	128,3	52,2	81,0	202,6	151,1
<b>Gurlan</b>	194,7	195,3	60,5	97,0	134,1	3,6 m.
<b>Qo'shko'pir</b>	113,8	78,9	78,0	76,9	35,8	83,6
<b>Urganch</b>	-	-	-	-	-	-
<b>Hazorasp</b>	207,1	146,3	112,7	125,2	94,4	183,5
<b>Tuproqqal'a</b>	29,1	90,1	24,0	84,4	5,1	133,0
<b>Xonqa</b>	175,8	161,5	136,7	148,6	39,1	2,3 m.
<b>Xiva</b>	-	-	-	-	-	-
<b>Shovot</b>	279,1	126,9	86,1	70,2	193,0	198,3
<b>Yangiariq</b>	62,8	78,3	40,3	69,2	22,5	102,3
<b>Yangibozor</b>	68,6	134,1	47,0	124,6	21,5	160,8

**UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI:  
DEHQON BOZORLARI**



11,8  
mlrd. so'm

**Tuzlamalar**



422,1  
mlrd. so'm

**Yangi uzilgan qishloq  
xo'jaligi mahsulotlari**



74,3  
mlrd. so'm

**Qurtilgan qishloq  
xo'jaligi mahsulotlari  
(yong'oq, bodom, pista va  
boshqalarni qo'shgan holda)**

133,8  
mlrd. so'm



**Non va non  
mahsulotlari**



21,4  
mlrd. so'm

**Sut va sut  
mahsulotlari**

43,0  
mlrd. so'm



**Tuxum**

154,4  
mlrd. so'm



**Don mahsulotlari (mosh,  
loviya, no'xat, guruch va  
boshqalar)**

42,5  
mlrd. so'm



**Chorva mollari va  
parrandalar uchun har xil  
yem-hashaklar**

10,7  
mlrd. so'm



**Gullar, o'simlik va nihol  
ko'chatlari (manzarali va  
qishloq xo'jaligi)**

14,7  
mlrd. so'm



**Ziravorlar**

72,7  
mlrd. so'm



**Tovuq go'shti**

2021- yilning yanvar-dekabr oylarida viloyatning (Urganch va Xiva tumanlaridan tashqari) **11** ta hududlarida joylashgan dehqon bozorlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuv natijalariga ko'ra, savdo aylanmasi hajmi **1 001,4** mlrd. so'mni tashkil etdi. Bunda asosiy yirik hajm yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosiga (**422,1** mlrd. so'm) to'g'ri keldi.


2021- yilning yanvar-dekabr oylarida viloyatning 11 ta (Urganch va Xiva tumanlaridan tashqari) hududlarida joylashgan chorva (parranda) bozorlarida parrandalar va chorva mollari sotuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuvini o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra, savdo aylanmasi hajmi **847,3** mlrd. so'mni tashkil etdi. Bunda har xil yoshdagi qora mollar savdosi **781,5** mlrd. so'mni, qo'y va echkilar savdosi **58,1** mlrd. so'mni, parrandalar savdosi **7,7** mlrd. so'mni tashkil etdi. Savdo aylanmasining to'liq tarkibi quyidagi ko'rsatkichda o'z aksini topgan:






2021- yilning yanvar-dekabr oylarida chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish tashkilotlarining savdo aylanmasi **1,0 %** ni tashkil etib, **110,8** mlrd. so‘mga yetdi va 2020- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan **7,1 %** ga oshdi. Bunda jami savdo aylanmasining **99,2 %** ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.

**Umumiy ovqatlanish korxonalarini savdo aylanmasining o‘shish sur‘atlari, foizda**



	Jami, mln. so‘m	2020- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar, mln. so‘m	2020- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan, foizda	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, mln. so‘m	2020- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan, foizda
<b>Xorazm viloyati</b>	<b>110 784,8</b>	<b>107,1</b>	<b>866,5</b>	<b>10,5</b>	<b>109 918,3</b>	<b>115,5</b>
<i>shaharlar:</i>						
Urganch	47 910,7	100,7	-	-	47 910,7	106,2
Xiva	2 810,9	120,4	-	-	2 810,9	120,4
<i>tumanlar:</i>						
Bog‘ot	4 454,2	112,2	-	-	4 454,2	112,2
Gurlan	2 982,8	108,3	-	-	2 982,8	108,3
Qo‘shko‘pir	1 923,3	115,5	-	-	1 923,3	115,5
Urganch	18 314,2	110,6	866,5	125,0	17 447,6	110,0
Hazorasp	8 611,5	113,0	-	-	8 611,5	113,0
Tuproqqal'a	1 703,7	116,6	-	-	1 703,7	116,6
Xonqa	3 864,9	117,1	-	-	3 864,9	117,1
Xiva	2 809,5	120,6	-	-	2 809,5	120,6
Shovot	10 688,5	108,3	-	-	10 688,5	2,2 m.
Yangiariq	1 908,7	116,1	-	-	1 908,7	116,1
Yangibozor	2 801,8	119,6	-	-	2 801,8	119,6

**Asosiy tarkib, foizda**




Yirik korxonalar




Mikrofirma va kichik korxonalar

2021- yilning yanvar-dekabr oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi **3 609,3** mlrd. so'mni tashkil etib, 2020- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan **10,1 %** ga oshdi. Shu jumladan, yirik korxonalarining savdo tovar aylanmasi **699,4** mlrd. so'mni (**18,3%** ga kamaydi), kichik biznes subyektlarining savdo tovar aylanmasi **2 909,9** mlrd. so'mni (**20,2 %** ga ko'payish) tashkil etdi.


**O'sish (o'zgarish) sur'atlari, foizda**



**Savdo aylanmasi hajmi va ulushi**



**Eng yuqori ulushga ega hududlar**






Ulgurji savdo tovar aylanmasida yuqori o'sish sur'atlariga ega yirik korxonalar Gurlan tumani (345,1 m.), Bog'ot tumani (322,4 m.), Hazorasp tumani (71,5 m.), Yangibozor tumani (9,1 m.) da kuzatildi.


Ulgurji tovar aylanmasida yuqori o'zgarish sur'ati Gurlan (5,5 m.), Bog'ot (3,3 m.) va Hazorasp (2,1 m.) tumanlarida qayd etildi.

**Ulgurji savdo aylanmasi o'sish sur'atlari, foizda**




	Jami, mln. so'm	2020- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar, mln. so'm	2020- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan, foizda	Mikrofirma va kichik korxonalar, mln. so'm	2020- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan, foizda
<b>Xorazm viloyati</b>	<b>3 609 261,6</b>	<b>110,1</b>	<b>699 387,0</b>	<b>81,7</b>	<b>2 909 874,6</b>	<b>120,2</b>
<i>shaharlar:</i>						
Urganch	1 825 194,0	108,0	210 521,6	64,0	1 614 672,5	118,7
Xiva	115 078,2	109,4	854,4	93,3	114 223,8	109,6
<i>tumanlar:</i>						
Bog'ot	71 839,4	3,5 m.	46 625,2	322,4 m.	25 214,2	125,4
Gurlan	112 787,3	5,5 m.	79 595,6	345,5 m.	33 191,7	165,3
Qo'shko'pir	21 180,7	155,4	13,3	7,8	21 167,4	157,3
Urganch	768 535,6	118,8	266 067,7	111,4	502 467,9	123,2
Hazorasp	73 033,9	2,1 m.	18 908,0	71,5 m.	54 126,0	154,9
Tuproqqal'a	18 437,5	7,4	27,3	0,0	18 410,1	139,9
Xonqa	216 701,3	126,3	74 608,7	155,8	142 092,7	114,9
Xiva	232 330,6	113,4	272,0	98,3	232 058,6	113,5
Shovot	56 591,0	124,9	53,6	73,3	56 537,4	125,0
Yangiariq	37 983,7	178,1	297,1	107,4	37 686,6	179,1
Yangibozor	59 568,2	112,7	1 542,5	9,1 m.	58 025,8	110,2

## YIRIK KORXONALAR VA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASIDAGI ULUSHI, foizda



Ulgurji savdo tovar aylanmasida eng yuqori hajm kichik biznes subyektlariga to'g'ri kelib, mazkur hajm 2021- yil yanvar-dekabr oylari yakuniga ko'ra, **2 909,9** mlrd. so'mni tashkil etib, 2020- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan **20,2** % ga ko'paygan. Jami ulgurji savdo tovar aylanmasidagi ulushi esa **80,6** % ni tashkil etdi.

Bu ko'rsatkich hududlar kesimida taqqoslanganda Qo'shko'pir (99,9 %), Shovot (99,9 %), Xiva (99,9 %), Tuproqqal'a (99,9 %) tumanlarida yuqori bo'lgan. Eng past ulush esa Gurlan tumani (29,4 %) va Bog'ot tumaniga (35,1 %) to'g'ri keldi.



Tashqi iqtisodiy  
faoliyat va savdo  
statistikasi bo'limi  
Tel.: (62) 224-65-09